ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 04.07.2026 · Accepted: 25.07.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/bp1vbh64

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Atoqli kompozitor Mutal Burhonov va milliy musiqiy tafakkur

(Composer Mutal Burhanov and National Musical Thought)

Shakhnoza Aykhodjayeva

Department of Uzbek Music History
State Conservatory of Uzbekistan
Uzbekistan/Tashkent
100001, B. Zokirov 1.
E-mail: shahnozaayxodjayeva@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada atoqli o‘zbek kompozitori Mutal Burhonovning hayoti, ijodiy merosi va o‘zbek professional musiqa san’ati taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kompozitorning vokal, xor, vokal-simfonik va opera janrlarida yaratgan asarlari orqali milliy musiqiy tafakkur hamda professional kompozitorlik texnikasining uyg‘unligi yoritiladi. Tadqiqotda Sharq xalqlari kuylarining a cappella ishlanmalari, Alisher Navoiy va Abdulla Oripov she’riyati asosidagi asarlar, xususan, 1968 yilda yaratilgan “Alisher Navoiyga qasida” hamda 1986 yildagi “Alisher Navoiy” operasining musiqiy dramaturgiyasi, lad-intonatsion tuzilishi va Shashmaqom ohanglaridan foydalanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Kompozitor ijodida milliylik faqat xalq kuylarini qo‘llash bilan cheklanmay, musiqiy intonatsiya, ritmik tafakkur va obrazlar tizimida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Shuningdek, kompozitorning xor ijodida ko‘p ovozli faktura, tembrlar uyg‘unligi va polifonik fikrlash uslubining o‘ziga xos jihatlari, adabiy matn va musiqiy ifoda o‘rtasidagi aloqa tamoyillari hamda ularning o‘zbek musiqa tarixidagi ahamiyati bayon etiladi. Tadqiqot natijalari Burhonov merosini o‘zbek professional kompozitorlik maktabining shakllanishini hamda milliylik va zamonaviylik munosabatini anglashda muhim ilmiy manba sifatida baholashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Mutal Burhonov, o‘zbek kompozitorlik maktabi, vokal musiqa, xor, a cappella, romans, vokal-simfonik musiqa, opera, milliy musiqiy tafakkur, musiqiy meros.

Abstract

This article offers a scholarly analysis of the life, creative legacy, and place of the distinguished Uzbek composer Mutal Burkhanov in the development of Uzbek professional music. Through his works in the vocal, choral, vocal-symphonic, and

operatic genres, the article demonstrates how national musical thinking is combined with professional compositional technique. The study examines his a cappella arrangements of the melodies of Eastern peoples, and works based on the poetry of Alisher Navoi and Abdulla Oripov, notably “Ode to Alisher Navoi” (1968) and the opera “Alisher Navoi” (1986), focusing on their musical dramaturgy, modal-intonational structure, and use of Shashmaqom melodic idioms. The article argues that national character in the composer’s work is not limited to the use of folk melodies but manifests itself in musical intonation, rhythmic thinking, and the system of imagery. It also describes the distinctive features of his choral writing, namely polyphonic texture, timbral blending, and a polyphonic approach to composition, together with the principles linking literary text and musical expression, and their significance in the history of Uzbek music. The findings allow Burkhanov’s legacy to be assessed as an important scholarly source for understanding the formation of the Uzbek school of professional composition and the relationship between national tradition and modernity.

Keywords: Mutal Burkhanov, Uzbek school of composition, vocal music, choral music, a cappella, romance, vocal-symphonic music, opera, national musical thinking, musical heritage.

Аннотация

В статье предпринят научный анализ жизни, творческого наследия Мутала Бурханова, выдающегося узбекского композитора, и его места в развитии узбекского профессионального музыкального искусства. На примере произведений в вокальном, хоровом, вокально-симфоническом и оперном жанрах показано сочетание национального музыкального мышления с профессиональной композиторской техникой. В исследовании рассматриваются хоровые обработки a cappella мелодий народов Востока, а также сочинения на стихи Алишера Навои и Абдуллы Арипова, в частности “Касыда Алишеру Навои” (1968) и опера “Алишер Навои” (1986): анализируются их музыкальная драматургия, ладоинтонационное строение и особенности использования мелодических оборотов Шашмакома. Обосновывается, что национальное начало в творчестве композитора не сводится к использованию народных мелодий, а проявляется в музыкальной интонации, ритмическом мышлении и системе образов. Освещаются также своеобразные черты его хорового творчества: многоголосная фактура, тембровое единство и полифонический стиль мышления, принципы взаимосвязи литературного текста и музыкального выражения, а также их значение в истории узбекской музыки. Результаты исследования позволяют оценить наследие М. Бурханова как важный научный источник для

осмысления становления узбекской профессиональной композиторской школы и соотношения национального и современного начал.

Ключевые слова: Муталь Бурханов, узбекская композиторская школа, вокальная музыка, хоровая музыка, a cappella, романс, вокально-симфоническая музыка, опера, национальное музыкальное мышление, музыкальное наследие.

Atoqli o‘zbek kompozitori Mutal Burhonov an’anaviy musiqa san’ati muhitida o‘sib katta bo‘ldi. “Uning amakisi Mukammil musiqani nihoyatla sevib, o‘zi ham yaxshi tanburchi edi. U jiyanining musiqaga bo‘lgan qiziqishi va intilishini ko‘rib, sakkiz yoshli Mutal uchun maxsus tanbur yasattirib beradi. Bu bo‘lajak musiqachi uchun katta shodlik edi. Shunday qilib, Mukammil jiyaniga musiqadan saboq bergan birinchi ustoz bo‘ldi. Keyinchalik yosh Mutal mashhur maqomdon bilimdon, sozanda Ota G‘iyos Abdug‘anidan Shashmaqom cholg‘u qismlaridan namunalar o‘rganadi” [1].

Mutal Burhonov ijodining asosiy xususiyati - “professional kompozitorlik tajribasining milliy musiqiy tafakkur ila o‘zaro uyg‘unlashuvi bo‘ldi. U o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari, maqom an’analari va sharqona ohanglarni ko‘p ovozli musiqa, xor yozuvi va simfonik fikrlash imkoniyatlari bilan birlashtirdi” [4].

Kompozitor ijodiy uslubida milliy ohangning tabiiyligi, kuychanlik, vokal intonatsiyaning ravonligi va matn mazmunini musiqiy vositalar orqali ochib berishga intilish muhim o‘rin egallaydi. Ta’kidlash joizki, aynan shu jihatdan M. Burhonov ijodi o‘zbek professional kompozitorlik maktabining milliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Atoqli ijodkor musiqiy tilini tavsiflashda bir necha muhim belgilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: bu milliy ohang negiziga tayanish, kuychan melodika, vokal ifodaning ustuvorligi, ko‘p ovozli faktura, xor imkoniyatlaridan samarali

foydalanish va zamonaviy kompozitorlik usullarini milliy meros namunalari bilan uyg‘unlashtirishdir.

Kompozitor ijodida milliylik faqat xalq kuylarini bevosita qo‘llash bilangina cheklanmaydi. Milliy ruh musiqiy intonatsiya, ritmik tafakkur, obrazlar tizimi va musiqiy rivojning umumiy xarakterida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli Burhonov merosini o‘zbek professional musiqasining milliy o‘zligini izlash jarayonining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Mutal Burhonov O‘zbekistonda ko‘p ovozli xor, xususan a cappella janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Uning xor ijodida xalq kuylarining ohangdorligi professional ko‘p ovozli yozuv tamoyillari bilan birlashadi. “Kompozitor Sharq xalqlari kuylarini qayta ishlash orqali turli milliy musiqiy durdonalarning xor ijrosida yangicha talqin qilinishiga yo‘l ochdi. Qozoqcha “Dudaray”, eroncha “Go‘le gandum”, o‘zbekcha “Go‘zal qizga” va afg‘oncha “Chashmi siyoh” qo‘shiqlarining a cappella shaklidagi ishlanmalari bunga misol bo‘la oladi” [3].


Ijodkor qalamiga mansub xor asarlarida ovozlarning mustaqil harakati, tembrlar uyg‘unligi va polifonik fikrlash uslubi kompozitorning professional mahoratini namoyon etadi.

E’tirof etish joizki, M. Burhonov ijodida adabiy manba va musiqiy ifoda o‘rtasidagi aloqa muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. U Alisher Navoiy, Abdulla Oripov kabi o‘z zamonasining daho shoirlari she’riyatiga murojaat qilib, nazmiy obrazlarni vokal va simfonik vositalar orqali mohirona ochib bergan. Bunday yondashuv kompozitorning matn mazmunini musiqaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishdan ko‘ra, uning ichki ruhini musiqiy dramaturgiya orqali qayta yaratishga intilganini ko‘rsatadi.


Ijodkorning vokal-simfonik ijodi uning musiqiy tafakkuridagi yirik janrlar bilan ishlash qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda vokal partiyaning mazmuni

orkestrning rang-barang imkoniyatlari bilan bir butun badiiy tizimga keltiriladi. Xususan, “Alisher Navoiyga qasida” asari Abdulla Oripov she’ri asosida 1968-yilda yaratilgan bo‘lib, kompozitorning adabiy matn va musiqiy obraz o‘rtasidagi munosabatni chuqur anglaganini ko‘rsatadi.

Asarning musiqiy shakli orkestr muqaddimasi bilan boshlanuvchi rivojlangan uch qismli shakl bo‘lib, unda xor asarning asosiy obrazi sifatida namoyon bo‘ladi:



Qasidaning ohang tuzilishi bosh musiqiy obraz pastki tertsiyaviy davralarining o‘zgarishiga asoslangan. Undagi lad pardalar uyushmasi T – VI – VI↓ – II↓ – T ko‘rinishida, ya’ni diatonik ladlar uchtovushligining o‘zaro almashinib kelishiga qurilgan. Asarda Shashmaqom turkumi Navo maqomining “Saraxbori Navo” ohanglaridan mohirona foydalanilgan:



Abdulla Oripov she'ri yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun bastalangan mahobatli "Alisher Navoiyga qasida" asarida o'zining yuksak badiiy ifodasini topgan. Kompozitor ushbu asari orqali Navoiy dahosiga bo'lgan hayratini ifodalagan; shoir hayoti va ijodi kompozitorni butun umri davomida o'ylantirib, maftun etgan. Bu uning ijodidagi romansdan to operagacha bo'lgan barcha janrlarda kuzatiladi.

1986-yilda yaratilgan "Alisher Navoiy" operasi ham Mutal Burhonov ijodining yirik sahna asarlaridan biridir. Mazkur opera buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy siymosini musiqiy dramaturgiya vositalari orqali gavdalantirishga qaratilgan.

Mazkur operada tarixiy shaxs va davr ruhi, insoniy fazilatlar hamda ma'naviy g'oyalar musiqiy-sahnaviy obrazlar orqali yoritiladi. Asar kompozitorning yirik shakl, dramatik rivoj va vokal-simfonik tafakkur bilan ishlash tajribasini umumlashtiradi.

"Alisher Navoiy" nomli tarixiy opera kompozitorning Navoiy dahosini anglab etishda erishgan yutuqlari natijasidir. "M. Burhonov asarni yaratish uchun butun hayoti va ijodi davomida maqsadli odimladi. Bu uzoq va davomli yo'lning muhim bosqichi "Navoiy Astrobodda" musiqali dramasi, "Alisher Navoiyga qasida" poemasi, Izzat Sulton va Mannon Uyg'urlar tomonidan sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektakliga musiqalar bo'ldi" [2].

M. Burhonov "Alisher Navoiy" operasida qahramon obrazini serqirra va ruhiy jihatdan ishonchli tarzda yoritib, o'zini esa dadil opera dramaturgi sifatida namoyon qiladi.

Spektaklning yakunlovchi sahnasi o'zining dramatizmi va ulug'vorligi bilan, opera finallarining trafaretli shablonlariga qarshi chiqqan echimlarining dadilligi bilan hayratga soladi. M. Burhonov bu erda ham Navoiyning xalqparvarlik ideallariga sodiq qolgan. "Kompozitor insonparvarlik, mehr-muhabbat va fidokorlik

g‘oyalarini o‘z operasi orqali real tarzda, ulkan badiiy ishonch kuchi bilan, Navoiy davrini Burhonov davri, bizning zamonamiz bilan o‘zaro bog‘lagan holda yoritib bergan. Operaning musiqasi asrlar orasidagi ulkan masofani sidirib tashlaydi. U opera qahramonining kechinmalariga zamonaviy insonning ma’naviy hayoti qirralari, ruhiy ranglar boyligi va zamonaviy tuyg‘ular teranligini olib kirgan” [2].

Navoiy va Burhonov o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy aloqalarning o‘rnatilishida buyuk shoirning hayotiy kuzatuvlari hamda o‘ylarining umumlashmasi bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asari muhim o‘rin tutadi. Navoiyning o‘ziga xos va mazmunan birmuncha murakkab ushbu ijod mahsuli M. Burhonovga yanada yaqindir. Navoiyning bu asari uslubining ajib musiqiyligi bilan tavsiflanadi. Nasrda yozilgan bo‘lsa-da, qofiyalarga boy bu asarning musiqachi va hofizlarga bag‘ishlangan 22-bobi juda qiziqarlidir. Bunda Navoiy aytim musiqa ijrochiligining muhim xususiyatlari, uning tinglovchiga ta’siri haqida yozadi. Muallif fikricha, aynan vokal musiqa inson yuragini chuqur hayajonga solishga, oshiq qalblarning qaynoq nafasini ifodalashga qodir. Tabiiyki, Navoiyning qo‘shiq va ashulalar ijrosi xususidagi fikrlari, shoir hayoti va ijodini batafsil va teran o‘rgangan M. Burhonov e’tiboridan chetda qolmagan.

Atoqli kompozitor buyuk shoir va mutafakkirdan o‘z musiqiy fikrlarini alohida shoironalik bilan, mukammal badiiy shaklda, ularga tinglovchiga ta’sir qiluvchi ruhiy-emotsional kuch baxsh etib, ifodalashni o‘rgandi. Bu ajablanarli emas, zero Navoiyning o‘zi ham ana shunday teran musiqachi bo‘lgan edi.

Mutal Burhonov XX asr va yangi davr bo‘sag‘asidagi o‘zbek professional musiqa san’atining yirik namoyandalaridan biridir. Uning ijodiy merosi vokal va romans musiqasi, xor va a cappella janri, vokal-simfonik asarlar, opera, kino musiqasi hamda davlat miqyosidagi musiqiy timsollarni qamrab oladi.

Mutal Burhonov O‘zbekiston san’atining rivojiga qo‘shgan hissasi uchun davlatimiz tomonidan bir qator faxriy unvon va mukofotlarga sazovor bo‘lgan. “U

1964-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, 1974-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvonlari sohibi, shuningdek, Hamza va Berdaq davlat mukofotlari laureati bo‘lgan.

Vatanimiz Istiqlolga erishgach esa kompozitorning xizmatlari “Shuhrat” medali (1994), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (1998) va “El-yurt hurmati” ordeni (2001) bilan e’tirof etilgan” [5].

Kompozitor ijodining tarixiy ahamiyati shundaki, u milliy musiqiy tafakkurni zamonaviy professional kompozitorlik vositalari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirdi. Uning asarlarida milliy ohang, kuychanlik, ma’naviy mazmun va badiiy professionallik bir butun tizimni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasi esa bu merosning xalq xotirasidagi eng barqaror va ramziy ko‘rinishidir.

Zero, Mutal Burhonov merosini o‘rganish nafaqat bir kompozitor ijodini tadqiq etish, balki o‘zbek professional musiqa maktabining shakllanishi, milliylik va zamonaviylik munosabati hamda musiqa san’atining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burhonov, M. Ko‘ngil xazinasi (Burhonnoma) / M. Burhonov. — Toshkent, 1998.
2. Янов-Яновская, Н. С. Муталь Бурханов / Н. С. Янов-Яновская. — Ташкент, 1999.
3. Jabborov, A. O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari / A. Jabborov. — Toshkent, 2004.
4. Jabborov, A. O‘zbek musiqasi tarixi / A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova. — Toshkent, 2018.
5. O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi. — URL: https://www.commus.uz/index.php/uz/55-tzilma/ompozitorlar/101-mutal-mutavakkil-burkhonov.

References

1. Burkhonov, M. *Ko‘ngil xazinasi (Burhonnoma)* [Treasury of the Heart (Burhonnoma)]. Tashkent, 1998. (in Uzbek)
2. Yanov-Yanovskaya, N. S. *Mutal’ Burkhanov* [Mutal Burkhanov]. Tashkent, 1999. (in Russian)
3. Jabborov, A. *O‘zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslari* [Composers and Musicologists of Uzbekistan]. Tashkent, 2004. (in Uzbek)
4. Jabborov, A., S. Begmatov, and M. Azamova. *O‘zbek musiqasi tarixi* [History of Uzbek Music]. Tashkent, 2018. (in Uzbek)

5. Union of Composers and Bastakors of Uzbekistan. https://www.commus.uz/index.php/uz/55-tzilma/ompozitorlar/101-mutal-mutavakkil-burkhonov